

Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati bo'yicha yangi ishga qabul qilingan xodimlar bilan yig'ilish o'tkazildi

// 23.08.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-siyosati-bo-yicha-yangi-ishga-qabul-qilingan-xodimlar-bilan-yig-ilish-o-tkazildi>



Unda "O'zkimyosanoat" AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish va Komplayens boshqarmasi boshlig'i O.Mirtemirov, boshqarma boshlig'i o'rinbosari J.Zikirov hamda boshqaruv raisining ma'naviy-ma'rifiy ishlar va davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi S.Abduraxmanovalar ma'ruza qilishdi.







Yig'ilishda 2023-yilda ishga qabul qilingan xodimlarga Jamiyatning "Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati", "Odob-axloq qoidalari", "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish" nizomlari to'g'risida atroflicha ma'lumotlar berildi.



Jamiyatda har qanday korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik uchun korporativ madaniyatni yaratish, shuningdek, kasbiy madaniyat, xizmat faoliyati davomida va xizmatdan tashqari vaqtda odob-axloq me'yorlari haqida tushuntirishlar berildi.



  uzkimyosanoat

  uzkimyosanoat.uz

 (+99878) 140-74-26

